

## Istiqbol va islohotlar

2021-yil 17-aprelda “Tillar” kafedrasida o‘qituvchilari tomonidan “Ta’lim tizimida olib borilayotgan bugungi islohotlar” mavzusida Toshkent shahar Yunusobod tumani 58-sonli umum ta’lim maktab o‘quvchilari ishtirokida tadbir tashkil etdi. Uchrashuvda “Tillar” kafedra mudiri Qilicheva F.B., Turmanov T.M., Usmonov U.E., Mirkurbanova R.A. lar ishtirok etib, bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi haqida fikrlar bildirdilar hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti faoliyati va fakultetlari haqida ma’lumotlari berib o‘tdilar.



O‘quvchilar o‘z qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishi haqida so‘zlab berdilar. Tadbir qiziqarli savol-javoblar va mazmunli suhbatlarga boy tarzda tashkil etildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**